

## Farmon mazmun-mohiyati, belgilangan vazifalarga bag'ishlangan matbuot anjumani o'tkaziladi

Ma'lumki, 2022-yil 30-may kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining seysmik xavfsizligini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-144-sonli Farmoni qabul qilindi.

Joriy yil 6-iyun kuni soat 16:00da Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida Fanlar akademiyasi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi hamda Qurilish vazirligi mutasaddilari ishtirokida mazkur Farmonning mazmun-mohiyati, belgilangan vazifalarga bag'ishlangan matbuot anjumani o'tkaziladi.